

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

GABRIELYAN SOFYA IVANOVNA

**YEVROPA DAVLATLARINING ERONDAGI TASHQI-SIYOSIY
RAQOBATI TARIXI: GEOIQTISODIY JIHATLAR
(XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)**

07.00.03 – Jahon tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Fan doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук

Content of the abstract of dissertation of doctor of sciences

Gabrielyan Sofya Ivanovna

Yevropa davlatlarining Erondagi tashqi-siyosiy raqobati tarixi: geoiqtisodiy jihatlar (XIX asr oxiri - XX asr boshlari)..... 3

Габриэльян Софья Ивановна

История внешнеполитического соперничества европейских государств в Иране: геоэкономические аспекты (конец XIX - начало XX века)..... 31

Gabrielyan Sofya Ivanovna

History of the foreign policy rivalry of European countries in Iran: geo-economic aspects (late XIX - early XX century) 61

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 66

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

GABRIELYAN SOFYA IVANOVNA

**YEVROPA DAVLATLARINING ERONDAGI TASHQI-SIYOSIY
RAQOBATI TARIXI: GEOIQTISODIY JIHATLAR
(XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)**

07.00.03 – Jahon tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Tar161 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida tayyorlangan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-tarix.tdpu.uz) va «ZiyoNET» (www.ziynet.uz) axborot ta'lim portali manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Kobzeva Olga Petrovna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nuriddinov Erkin Zuxriddinovich
tarix fanlari doktori, professor

Raximov Mirzoxid Akramovich
tarix fanlari doktori, professor

Tursunova Ra'no Yusupovna
tarix fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil _____soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy.) Tel.: (+99871) 276-76-51; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-76-51; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «_____» _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.K.Kirgizbayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

S.B.Tilabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, tarix fanlari nomzodi

N.X.Oblomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi (DSc))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ro‘y berayotgan zamonaviy geosiyosiy jarayonlar har bir davlatga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, o‘zaro iqtisodiy aloqalar mamlakatlar o‘rtasidagi har tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, neft va energiya resurslarini olish, yirik kommunikatsiya tizimlariga kirish uchun o‘zaro raqobat dunyoning turli mintaqalarida siyosiy vaziyatning keskinlashuviga olib keladi. Bugungi kunda har qachongidan ham ko‘proq jahon hamjamiyatining e‘tibori XIX-XX asr boshlarida bo‘lgani kabi Eron ko‘rfazidagi vaziyatga qaratilmoqda. Darhaqiqat, yirik davlatlarning raqobati yoki o‘ziga xos “Katta o‘yin”i mavjud bo‘lib, mazkur voqealarning tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganib, tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlarida olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa davlatlarining Erondagi¹ tashqi siyosiy raqobati, G‘arb davlatlarining Yaqin Sharq va Erondagi geosiyosiy manfaatlari bilan bog‘liq muammolar, “Katta o‘yin” siyosatining bir qismi sifatida Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalarining Eronga o‘z ta‘sirini o‘tkazishi, 1907 yilgi Angliya-Rossiya ta‘sir doiralarini chegaralash to‘g‘risidagi kelishuv muammolari kabi masalalar o‘rganilmoqda. XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi xalqaro munosabatlarga oid ko‘plab arxiv hujjatlari va materiallarini o‘rganish asosida Yevropaning yetakchi davlatlari, “Eronshunoslik” ilmiy markazlari, Eron tarixi, iqtisodiyoti, siyosati va madaniyatini o‘rganish bo‘yicha laboratoriyalar hamda uning geosiyosiy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha diplomatik aloqalar va ekspeditsiyalar doirasida O‘rta Sharq mamlakatlari tomonidan hujjatlarning elektron kataloglarini ishlab chiqish kabi qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda xorijiy davlatlar bilan siyosiy, diplomatik, savdo-iqtisodiy va strategik aloqalarni rivojlantirish, mavjud hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish borasidagi sa‘y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekistonning Osiyo mintaqasidagi strategik sheriklaridan biri bo‘lgan Eron bilan ko‘p qirrali hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda. Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiyning O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida “biz birgalikda uzoq yo‘lni boshida turibmiz, kelgusida ham faol aloqalar va samarali almashinuvlarni yanada rivojlantirish, O‘zbekiston va Eron o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda yuqori dinamikani saqlab qolish va o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish lozim”², deya ta‘kidlab o‘tildi. Shu munosabat bilan Eronning murakkab sharoitlarda mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bo‘yicha tarixiy tajribasiga tayangan holda natijalarni umumlashtirish, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Prezidenti ta‘kidlab o‘tganidek: “Hamkor-mamlakatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda olib boriladigan hududiy va global miqyosdagi

¹ Dissertatsiyada “Fors”, “Eron” yoki “Qadjar monarxiyasi” nomli sinonim sifatida ishlatilgan. Fors 1935 yil 22 martda Shox Rizo Paxleviy xokimiyatda kelishi bilan o‘zining rasmiy nomini Eron deb o‘zgartirdi.

² Eron Prezidentining O‘zbekistonda rasmiy tashrifi va O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bilan uchrashuvi. <https://president.uz/ru/lists/view/5506>; <https://www.gazeta.uz/ru/2022/09/14/iran/> [Elektron resurs]

muvozanatli, doimiy masalalarni amalga oshirish, ular bilan ikki tomonlama va ko‘pqirrali uchrashuvlar o‘tkazish, shuningdek, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida va turli darajalarda maslahat almashuvlari” – davlatimiz tashqi siyosatining asosi hisoblanadi³.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2018 yil 5 apreldagi PF–5400-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari va sohaga oid boshqa meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsion tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishida innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁴

XIX-XX - asr boshlarida Yevropa davlatlarining Erondagi tashqi siyosiy raqobatining geoiqtisodiy jihatlari tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar dunyoning bir qator yetakchi ilmiy markazlari va oliy o‘quv yurtlarida, jumladan, Konkordiya universiteti (Concordia University, Canada), Avstriya Fanlar akademiyasining Eronshunoslik instituti (Institute of Iranian Studies, Austrian Academy of Sciences, Austria), Stenford universiteti (Stanford University, USA), London universiteti qoshidagi Eron tadqiqotlari markazidagi Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi (Centre for Iranian Studies in SOAS University of London, Great Britain), Javoharlal Neru universiteti qoshidagi Fors va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi (Centre of Persian and Central Asian Studies in Jawaharlal Neru University, India), Hayfa shahridagi Eron va Fors ko‘rfazi tadqiqotlari universiteti (The Ezri Center for Iran & Persian Gulf Studies University of Haifa, Israel), Bamberg universiteti qoshidagi Eron tadqiqotlari markazi (Iranian Studies at the University of Bamberg, Germany), Parij III Yangi Sorbonna universiteti (L'université Paris III Sorbonne Nouvelle, France), Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti «Collegium Iranicum» (Rossiya) Eron tadqiqotlari markazida olib borilmoqda.

³ Мирзиёев Ш.М. О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы / Указ Президента РУз от 28.01.2022. №УП-60 // https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/utverjdena_strategiya_razvitiya_novogo_uzbekistana_na_2022-2026_gody [Elektron resurs]

⁴Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <https://www.concordia.ca/>, <https://www.oeaw.ac.at/ifi>, <https://iranian-studies.stanford.edu/>, <https://cids.sfsu.edu/>, <https://www.soas.ac.uk/smei-cis/>, <https://www.jnu.ac.in/sllcs/CPCAS>, <https://gulfc.haifa.ac.il/>, <https://www.uni-bamberg.de/iranistik/>, <https://www.ivran.ru/>, <https://iranicum.spbu.ru/>, <http://xn--80aagie6cnnb.xn--p1ai/departments/9>, <https://associationforiranianstudies.org/resources/centres> va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

XIX-XX asrlarda Yevropa davlatlarining Erondagi tashqi siyosiy raqobatida geoiqtisodiy jihatlarni ilmiy tadqiq etish jarayonida quyidagi ilmiy natijalar olingan: G'arb davlatlarining Erondagi tashqi siyosiy raqobatining asosiy omili kapitalni investitsiyalash va foydali qazilmalarni eksport qilish sohalari uchun kurash ekanligi aniqlangan (Konkordiya universiteti, Kanada); G'arb davlatlarining Erondagi imperiya siyosati va uning Fors ko'rfazi mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy oqibatlari ilmiy asoslangan (London universiteti qoshidagi Eron tadqiqotlari markazi SOAS (Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi, Buyuk Britaniya); Yevropa davlatlarining siyosiy ekspansiyasi bilan bog'liq bo'lgan Forsdagi vaziyatning iqtisodiy o'zgarishi sharoitida dengiz va transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha nazariy tavsiyalar ishlab chiqilgan (Eron va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi, Javoharlal Neru universiteti (Hindiston); Yevropa davlatlari tomonidan Eronda mustamlakachilik raqobatini chuqurlashtirish uchun amalga oshirilayotgan mexanizmlar va ularning Sharqda kechayotgan siyosiy jarayonlarga ta'siri ochib berilgan (Eronni o'rganish bo'yicha Ezri markazi va Hayfadagi Fors ko'rfazi universiteti (Isroil); Erondagi milliy-ozodlik harakatining kuchayishi xorijiy davlatlarning ekspansiya siyosati bilan bog'liqligi aniqlangan (Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Rossiya Federatsiyasi), O'rta Osiyoda Rossiya va Eron o'rtasidagi bahsli chegara masalalari va Fors ko'rfazi havzasi va Markaziy Osiyo, shuningdek, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'rta Sharqdagi voqealarning butun xalqaro munosabatlar tizimiga ta'siri ochib berilgan («Collegium Iranicum» Eron Islom Respublikasini o'rganish markazi, Sankt-Peterburg (Rossiya Federatsiyasi), XIX asrda Germaniyaning Eronga qilgan razvedka ekspeditsiyalari va harbiy missiyalari natijalariga asoslangan hujjatlarning jamlangan katalogi tuzilgan (Avstriya Fanlar Akademiyasi Eronshunoslik instituti, Avstriya).

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari tomonidan XIX-XX asr boshlarida O'rta Sharqdagi Yevropa davlatlari o'rtasidagi mustamlakachilik raqobatining turli yo'nalishlari: O'rta Sharqda, xususan, Eronda G'arb davlatlarining mustamlakachilik boshqaruvi usullari; Eronda "Katta o'yin" siyosati doirasidagi Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya o'rtasidagi raqobat, 1907 yilgi Angliya-Rossiya konvensiyasini imzolash mexanizmi, milliy ozodlik kurashi va 1905-1911 yillardagi Eron inqilobi, G'arb davlatlari monopoliya va konsessiya uchun, XIX-XX asr boshlarida Fors ko'rfazi havzasida Rossiya, Buyuk Britaniya va Eron o'rtasidagi bahsli chegara muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dissertatsiya tadqiqoti muammosi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni har tomonlama tahlil qilish, xususiyatlari va hududiy farqlardan kelib chiqib, mavjud bo'lgan barcha ilmiy adabiyotlarni to'rt guruhga bo'lish maqsadga muvofiq: 1) Rossiya imperiyasi davridagi ilmiy nashrlar; 2) sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar; 3) mustaqillik yillarida MDH mamlakatlarida va O'zbekistonda nashr etilgan asarlar; 4) xorijiy tadqiqotlar.

Birinchi guruhga kiritilgan ilmiy tadqiqotlarda Yevropa davlatlarining O'rta Sharqdagi tashqi siyosatining ayrim siyosiy va iqtisodiy jihatlari o'rganilgan. Rossiya manfaatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan va buning natijasida Eronda

Rossiya hukumatining tashqi siyosatida o‘ziga xos “oqlash” tendensiyasi kuzatiladi⁵.

XX asrda Eron tarixi hamda O‘rta Sharq va Markaziy Osiyodagi “Katta o‘yin” siyosatiga oid yirik asarlar paydo bo‘ldi, ularda “buyuk imperiyalar” manfaatlari to‘qnashuvi bilan bog‘liq masalalar ochib berilgan. Ushbu tadqiqotlar xronologik jihatdan dissertatsiya mavzusi bilan bog‘liq adabiyotlarning ikkinchi guruhiga kiritilgan⁶. Mualliflar arxiv materiallari asosida ingliz-ruslarning Eron

⁵ Томара М.Л. Экономическое положение Персии. – Санкт-Петербург: Тип. В. Киршбаума, 1895; Риттих П.А. Политики-статистический очерк Персии. – Санкт-Петербург: Тип. Н. Финдейзена, 1896, Его же. Железнодорожный путь через Персию. – Санкт-Петербург: тип. В. Киршбаума, 1900; Рустем М. Персия при Наср-эд-Дин-шахе (с 1882 по 1888 г.). – Санкт-Петербург: Тип. и лит. В.А. Тиханова, 1897; Федоров М.П. Соперничество торговых интересов на Востоке. – Санкт-Петербург: Электро-типография Н.Я. Стойковой, 1903; Миллер А. Прошлое и настоящее Сеистана. – Санкт-Петербург: тип. МПС (Т-ва И.Н. Кушнерев и К°), 1907; Де Лакост Г. Россия и Великобритания в Центральной Азии. /Пер. с франц. Рихтер. – Ташкент: Типография Туркестанского военного округа, 1908; Ильин Е. Персия накануне конституции. – Москва: Тип. А.С. Забалуева, 1908; Снесарев А.Е. Англо-русское соглашение 1907 г. – Санкт-Петербург: Экон. типо-лит., 1908; Грулев М. Соперничество России и Англии в Средней Азии. – Санкт-Петербург: Изд-ль В. Березовский, 1909; Мамонтов Н.П. Очерки современной Персии. – Санкт-Петербург: Тип. В.Ф. Киршбаума, 1909; Петров А.Н. Как защищают свои интересы в Азии Англия и Россия. – Санкт-Петербург: Изд-во А.Д. Попова, 1910; Рональдшей Л.Д. Из Кветы через Сиесиан в Мешхед / Пер. с англ. – Ташкент, 1910; Берар В. Персия и персидская смута. – Санкт-Петербург: Брокгауз-Ефрон, 1912; Зиновьев И.А. Россия, Англия и Персия. – Санкт-Петербург: Тип. А.С. Суворина, 1912; Подеригин Г.Н. Нужна ли нам трансперсидская дорога? – Москва: 1912; Скиф. Персидский вопрос. Англо-русское соглашение, его основные принципы и пятилетние итоги. – Москва: Тип. А.А. Стрельцова, 1912; Сахаров А. Русская колонизация Астрабадской провинции в Персии. – Петроград: Тип. Содружество, 1915; Зарудный Н.А. Третья экспедиция по Восточной Персии (Хорасан, Сеистан, и персидский Белуджистан) (1900-1901) // Записки русского географического общества. – Санкт-Петербург, 1916; Павлович М.П. Империализм и борьба за великие железнодорожные и морские пути будущего. – Москва: Коммунист, 1919.

⁶ Попов А. Страница из истории русской политики в Персии. //Международная жизнь. 1924. №№ 4-5; Павлович М.П., Иранский С. Персия в борьбе за независимость. – Москва: Наука, 1925; Руир. Англо-русское соперничество в Азии в XIX в. – Москва: Госиздат, 1925; Триа В. Персидская революция и русский социал-демократический отряд ее. – Москва, 1925; Бартольд В.В. Иран. Исторический обзор. – Ташкент, 1926; Султан-заде А.С. Персия. – Москва: Госиздат, 1929; Шитов Г.В. Персия под властью последних Каджаров. – Ленинград: Изд-во АН СССР, 1933; Штейнберг Е. История британской агрессии на Среднем Востоке (от французской буржуазной революции до второй мировой войны). – Москва: Воениздат, 1951; Иванов М.С. Очерк истории Ирана. – Москва: Изд-во полит. литература, 1952; Тихонов А.А. Из истории английского проникновения в Персию в начале XIX в. // Ученые записки Ярославского пединститута. Всеобщая история. – Ярославль: ЯрПИ., Вып. 22. 1957; Розенталь Э.М. Французская дипломатия и англо-русское соглашение в 1906-1907 гг. (к вопросу о включении России в Антанту) / История СССР. 1958. №5. – С.123-136; Ананьич Б.В. Россия и концессия д’Арси. Исторические записки. Т.66. – Москва: Изд-во АН СССР, 1960; Ананьич Б.В. Учетно-ссудный банк Персии в 1894-1907 гг. // Монополии и иностранный капитал в России. – Москва – Ленинград: Изд-во АН СССР, 1962. Игнатъев А.В. Русско-английские отношения (1908-1914 гг.) – Москва: Соцэкгиз, 1962; Строева Л.К. Борьба иранского народа против английской табачной монополии в Иране в 1891-1892 гг. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1963; Глугодед В.С. Проблемы экономического развития Ирана (20-30-е годы XIX в.). – Москва: Наука, 1968; Астафьев И.И. Русско-германские дипломатические отношения 1905-1911 гг. – Москва: Изд-во МГУ, 1972; Астафьев И.И. Потсдамское соглашение 1911 г. // Исторические записки. Т.85. – Москва: Изд-во АН СССР, 1970; Сеидов Р.А. Иранская буржуазия в конце XIX – начале XX в. (Начальный этап формирования). – Москва: Наука, 1974; Ерофеев Н.А. Английский колониализм в середине XIX в. Очерки. – Москва: Наука, 1977; Остальцева А.Ф. Англо-русское соглашение 1907 г. – Саратов: Изд-во Саратов. университета, 1977; Истягин Л.Г. Германское проникновение в Иране и русско-германские противоречия накануне первой мировой войны. – Москва: Наука, 1979; Кулагина Л.М. Экспансия английского империализма в Иране в конце XIX – начале XX в. – Москва: Наука, 1981; Казем-Заде Ф. Борьба за влияние в Персии: дипломатическое противостояние России и Англии. – Москва: Центрполиграф, 2004; Туманович Н.Н. Европейские державы в Персидском заливе в XVI – XIX вв. – Москва: Наука, 1982; Анаркулова Д.М. Социально-политическая борьба в Иране в середине XIX в. – Москва: Наука, 1983; Кузнецова Н.А. Иран в первой половине XIX в. – Москва: Наука, 1983; Жигалина О.И. Великобритания на Среднем Востоке (XIX – начало XX в). Анализ внешнеполитических концепций. – Москва: Наука, 1990; Арабаджан З.А. Иран: власть, реформы,

uchun kurashi bosqichlari, Eron inqilobi muammosini tahlil qilganlar, xorijiy davlatlarning ushbu mamlakatga kirib borish yo'llarini ko'rsatib o'tganlar. P.I.Lyashchenko, I.V.Gindin, V.I.Bovikin, V.A.Vardova, B.V.Ananiich, I.I.Astafiyev, L.G.Beskrovniy, P.P.Bushev, V.S.Gluxoded, N.A.Yerofeyev, M.S.Ivanov va boshqa mualliflarning ishlari Rossiya iqtisodiy siyosatining ayrim jihatlariga bag'ishlangan. Shu o'rinda sovet davrida chop etilgan ilmiy adabiyotlarda kommunistik mafkura va marksistik-lenincha yondashuv mavjud bo'lganligini ham ta'kidlab o'tish lozim.

Bu davrda O'zbekiston tarixchilarining asarlarida ham Rossiya, Angliya va Eron o'rtasidagi munosabatlarning turli jihatlarini tahlil etilgan⁷. Z.R.Nuriddinov va G.A.Hidoyatov tadqiqotlarida ingliz va rus arxivlaridan olingan hujjatlar asosida O'rta Osiyo va qisman Erondagi ingliz-rus raqobati tahlil qilingan. B.S.Mannanov XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Rossiya – Eron savdo aloqalarining Turkiston o'lkasi orqali ochib berilishiga batafsil to'xtalib o'tgan.

Uchinchi guruh tadqiqotlariga sobiq ittifoq respublikalari davlat mustaqilligiga erishgandan keyin yozilgan ishlar⁸ kiritilgan. Ushbu ilmiy nashrlarda o'tmishdagi voqealarga nisbatan obyektiv yondashuvni kuzatish mumkin. Mualliflar neft sohasida Sharqdagi Yevropa raqobatining ba'zi jihatlarini tahlil qiladilar, Germaniyaning Bag'dod temir yo'lini qurish uchun imtiyoz olishi va Eronda rus kazak brigadasini yaratish bilan bog'liq bo'lgan Angliya-Rossiya qarama-qarshiligini yoritib berganlar. Biroq, tadqiqotlarda tashqi siyosatdagi

революции (XIX-XX вв.). – Москва: Наука, 1991; Атаев Х.А. Торгово-экономические связи Ирана с Россией в XVIII-XIX вв.– Москва: Наука, 1991; Парфенов И.А. Колониальная экспансия Великобритании в последней трети XIX в. (Движущие силы, формы и методы). – Москва: Наука, 1991

⁷ Матвеев А.М. Социально-политическая борьба в Астрабаде (вторая половина 1911 – начало 1912 гг.) – Ташкент: Изд-во САГУ. Вып. 151, 1959; Игамбердыев М.А. Иран в международных отношениях первой трети XIX в. – Самарканд: Изд-во САГУ, 1961; Нуриддинов З.Р. К историографии вопроса об англо-русском соперничестве в Средней Азии в 90-х годах XIX в. // Труды УзТГПИ. Вып. XXVII. – Ташкент: УзТГПИ, 1961; Маннанов Б.С. Из истории русско-иранских отношений в конце XIX – начале XX в. – Ташкент: Наука, 1964; Никольская Г.Б., Матвеев А.М. Присоединение Средней Азии к царской России и сопредельные страны Востока. // Материалы по истории присоединения Средней Азии к России. – Ташкент: Изд-во ТашГУ. Вып.343, 1969; Хидоятлов Г.А. Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. (60-70 гг.). – Ташкент: Фан, 1969; Нишанов М.А. Антиимпериалистические движения в Иране (1951-1953). – Ташкент: Фан, 1973; Абдуллаев Ю.Н. Астрабад и русско-иранские отношения (вторая половина XIX – начало XX вв.) – Ташкент: ФАН, 1975; Рихсиева Н. Вопросы русско-иранских отношений в документальных материалах ЦГА УзССР (Вторая половина XIX - начало XX вв.): Дисс...канд. ист. наук, - Ташкент, 1975; Емченко Р.М. Международные противоречия в Иране накануне первой мировой войны (1900-1914 гг.). – Ташкент: Изд-во ТашГУ, 1988; Бабаходжаев М.А. Страны Ближнего и Среднего Востока в международных отношениях (XIX – XX вв.). – Ташкент: Фан, 1984.

⁸ Рябцев А.Л. Роль Ирана в восточной торговле России в XVIII веке. – Москва: Минобр. России, 2002; Широкоград А.Б. Россия – Англия: неизвестная война, 1857-1907 - Москва: Изд-во АСТ, 2003; Ергин Д. Добыча. Всемирная история борьбы за нефть, деньги и власть. – Москва: Альпина Паблишер, 2011; Тер-Оганов Н.К. Персидская казачья бригада 1879–1921 гг. – Москва: ИВ РАН, 2012; Гоков О.А. Очерки истории персидской казачьей бригады (1878-1895): по русским источникам. – Москва: Университет Дмитрия Пожарского. 2018; Аллаева Н.А. История внешних связей Хивинского ханства в XVI-70-х годах XIX вв.: Автореф. дисс... доктор. истор. наук. – Ташкент, 2019; Васильев С.Д. Британское влияние на политику шахского правительства в отношении туркменских племен. Превращение Ирана в театр политического противостояния России и Великобритании. // Центральная Азия на перекрестке европейских и азиатских политических интересов: XVIII-XIX вв. – Москва: ОнтоПринт, 2019; Рохмистров В. Г. Большая игра: Столетняя дуэль спецслужб. – Москва: Пальмира, 2019; Никитин М.Э. Багдадская железная дорога как фактор развития германо-османских отношений в конце XIX – начале XX веков. // Вопросы студенческой науки. – Москва, №6, 2020.

diplomatik qarama-qarshilikning asosiy jihatlari va tamoyillari va Eron yoʻnalishidagi yirik Yevropa oʻyinchilarining geoiqtisodiy raqobati ochib berilmagan, iqtisodiy omillarning siyosiy qarama-qarshiligi, Eron taʼsir doirasiga kirganligi qoʻrsatilmagan. Afsuski, Oʻzbekiston tarixchilari bu muammoni oʻrganishga unchalik eʼtibor bermaganlar. Faqat V.V.Fetisovning bir nechta asarlari va N.A.Allayeva⁹ning dissertatsiyasini ajratib koʻrsatish mumkin. Shuni taʼkidlash kerakki, Eronda Yevropa davlatlarining tashqi siyosat ekspansiyasining iqtisodiy va siyosiy jihatlari oʻrganish boʻyicha yirik umumlashgan tadqiqotlar yaratilmagan.

Toʻrtinchi guruh tadqiqotlariga asosan, Buyuk Britaniya va AQSH olimlari ishlari, shuningdek, Eron olimlarining ingliz tilida chop etilgan bir qator tadqiqotlari¹⁰ kiritilgan. E.Braun XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Eronda sodir boʻlgan siyosiy voqealarga katta eʼtibor berib, 1905-1911 yillardagi Eron inqilobi va bu voqealarning sabab-oqibatlarini Yevropa davlatlarining Erondagi siyosati bilan bogʻliqligini tahlil qilgan. Muallif Rossiyaning Erondagi aralashuvi va bosqinchilik siyosatini bir tomonlama yoritgan. U Angliyani kuchli va yaxshi boshqariladigan Eronning mavjudligidan manfaatdor boʻlgan, ushbu davlatning himoyachisi sifatida koʻrsatib oʻtadi. R.L.Greaves tadqiqotlarida Erondagi Angliya-Rossiya raqobati voqealari inglizlarning vazifasi – eronliklar har qanday toʻqnashuvda ularni qutqaruvchilar deb atamasliklari uchun hukumatni yaxshilashga yordam beradigan bunday choralarni amalga oshirish va ragʻbatlantirish prizmasi orqali koʻrib chiqilgan. Muallif, shuningdek, inglizparast siyosiy yoʻnalishga amal qilgan holda, Angliyaning Sharqdagi sivilizatsiya

⁹ Аллаева Н.А. История внешних связей Хивинского ханства в XVI-70-х годах XIX вв.: Автореф. дисс... DSc. – Ташкент, 2019; Фетисов В. Дуэль на крыше мира. Эпизоды «большой игры». – Ташкент: Akademnashr, 2020.

¹⁰ Curzon G. Persia and the Persian Question. - London: Longmans, Green & Co., 1892; Stambidge S. R. Parliament, the Press and Colonies, 1846-1880. - New York; London, 1902; Malcolm J. The History of Persia. – London, 1849; Malcolm J. Five years in a Persian town. – London, 1905; Frazer D. Persia and Turkey in revolt. – London, 1910; Kazemzade F. Russia and Britain in Persia. 1864 – 1914. A Study in Imperialism. - New Haven; London: Yale University Press, 1968; Shuster W. M. The strangling of Persia. A record of European diplomacy and oriental intrigue. - London: T.F. Unwin, 1912; Sykes P. The History of Persia. - London. Macmillan and Company, Limited, 1921. V.1; Nicolson H.A. A Study in the old diplomacy. – London, 1930; The economic history of Iran. 1800-1914. / Ed. by Ch. Issawi. – London, 1931; Wilsom A.T. SW. Persia. A political officer's diary. 1907-1914. – London, New York, Oxford University Press, 1941; Greaves R.L. Persia and the defense of India. 1884-1892. – London, 1959; Keddy N. Religion and Rebellion in Iran. The tobacco-protest of 1891-1892. – London, 1966; Eldridge C.C. England's Mission. – London, 1973; Spring D.W. The Transpersian railway project and anglo-russian relations. // The Slavonic and East European Review. 1976. №1; Browne E. A. The Persian Revolution of 1905-1909. – Cambridge, 2006; Thompson W.R. Principal Rivalries // Journal of Conflict Resolutions. – 1995. – No. 39. P. 195-223; Thompson W.R., Kentaro S., Prashant H. S. Analyzing Strategic Rivalries in World Politics: Types of Rivalry, Regional Variation, and Escalation/De-escalation (Evidence-Based Approaches to Peace and Conflict Studies – NY: Springer, 2022; Kaye J.W. History of the War in Afganistan. – London. 1878. – 568 p.; Mathee R., Andreeve E. Rusians in Iran. Diplomacy and Power in the Qajar Era and Beyond. – London – New York, 2018; Tehroni A. Iran. – Berlin, 1943; Назем оль-эслам Кермани. Тарих-е бизари-йе ираниан. / Пер.с перс. Изд.2. Т.1. – Москва, 1953; Теймури И. Гарардад-сал-е 1891 «Режи». – Техран, 1963; Ramazani Rouhollah K. The Foreign policy of Iran. A developing nation in world affairs. 1500-1941. – Univ.Press of Virginia, 1966; Ибрагимов Т.А. Иранда сијаси чэмијјэтлар вэ тэшкиятларын јаранмасы вэ онларын фэамијјэти. (1858-1906). – Бакы, 1967; Kazemzadeh F. The Persian Cossach Brigade. //American Slavic and East European Review. V.15. – London, 1956, His own. Russia and Britain in Persia. 1894-1914. - New Haven; London, 1968; Abrahamian E. Iran between two revolutions. NJ, Princeton: Princeton University Press, 1982; Özyüksel M. The Berlin – Baghdad railway and the Ottoman Empire – Industrialization, Imperial Germany and the Middle East. – I.B. Tauris, 2016.

missiyasini isbotlashga uringan. F.Kazemzodaning tadqiqotlarida esa Rossiya va Angliyaning O‘rta Sharqdagi mustamlakachilik siyosati tahlil qilingan va turli maqsadlarda harakat olib borgan ushbu ikki imperiyaning Eronda bir xil bosqinchilik siyosatini olib borgani ko‘rsatib o‘tilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti “Jahon tarixi” kafedrasida ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa davlatlarining Erondagi tashqi siyosiy raqobatining geoiqtisodiy jihatlari tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Eronda o‘z iqtisodiy ta’sir doirasini vujudga keltirgan Rossiya va Buyuk Britaniyaning bu hududdagi raqobatining asosiy geoiqtisodiy jihatlari, shuningdek XIX asrdagi ushbu davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy qarama-qarshilik, moliya va bank mexanizmlari yordamida ularning mazkur hududdagi geosiyosiy ta’sirining mustahkamlanishini tahlil qilish;

Germaniya imperiyasining O‘rta Sharqqa kirib borishga yo‘naltirilgan tashqi siyosatidagi asosiy maqsadlar, Rossiya va Angliyaning Erondagi hukmronlikni qo‘ldan boy berish xavfi va XX asr boshida aksilgerman bloki sifati vujudga kelgan «Osiyo Antantasi» bilan bog‘liq muammolarni ochib berish;

Yevropalik davlatlarning Erondagi geoiqtisodiy raqobatidagi o‘zgarishlarni, shuningdek, Rossiya va Buyuk Britaniyaning bu davlatdagi qarama-qarshiligining asosiy jihatlari “Katta o‘yin” doirasida yoritib berish;

Rossiya diplomatiyasi, shuningdek, XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Eronda o‘z monopoliya ta’sirini qaror toptirishga intilgan Britaniya diplomatik va moliyaviy kuchlari bilan iqtisodiy raqobatga kirishgan Rossiya diplomatiyasi hamda yirik sanoat doirasida muvaffaqiyatsizlikka uchraganlik sabablarini tadqiq etish;

1911-1914 yillarda Erondagi ingliz-rus raqobatining kuchayishi, shuningdek, XX asr boshlarida Angliya va Rossiya tashqi siyosatida qarama-qarshilikdan majburiy yaqinlashishga o‘tish bosqichlari va sabablarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa davlatlarining Erondagi tashqi siyosati va iqtisodiy raqobati tarixi belgilangan.

Tadqiqotning predmeti Erondagi Rossiya va Britaniya imperiyalari o‘rtasidagi raqobat jarayonlari va evolyutsiyasi, ularning Birinchi jahon urushi arafasida qarama-qarshilikdan majburiy hamkorlikka aylanish jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini sivilizatsiyaviy yondashuv asosida yoritishda tarixiy-xronologik, tarixiy davomiylik va ketma-ketlik, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asrning boshlarida Germaniyaning O‘rta Sharqda mustamlakalarni qo‘lga kiritishga intilishi “Katta o‘yin”ning asosiy siyosiy ishtirokchilari Buyuk Britaniya

va Rossiyaning yaqinlashishiga imkon yaratgani, bu esa, o'z navbatida, 1907 yilgi konvensiyani imzolash bo'yicha muzokaralarining boshlanishiga olib kelganligi hamda ingliz-rus shartnomasini ishlab chiqishda Turkiston general-gubernatorligi ma'muriyati konvensiya loyihasining Afg'onistonga tegishli qismi bo'yicha muhim tavsiyalar berganligi dalillangan;

Buyuk Britaniya va Rossiyaning siyosiy doiralari o'z maqsadlariga erishish uchun Eron hukumatini siyosiy tuzoqqa ilintirib, qirol saroyini naqd subsidiyalar, ssudalar bilan ta'minlab, yirik amaldorlarga pora berib, Qojarlarga bosim o'tkazgani, "oltin (molliyaviy) igna" siyosatining qo'llanishi esa Eronning janubiy, shimoliy va betaraf zonalarida Rossiya va Angliya monopoliyasining o'rnatilishiga olib kelganligi isbotlangan;

xorijiy banklar Eronning moliyaviy qiyinchiliklaridan foydalanib, Fors ko'rfazining bojxona daromadlarini yuqori foizli katta kreditlar evaziga o'tkazishni talab qilishi oqibatida Eronning iqtisodiy qullikka aylanishiga olib kelgan mexanizmlar ochib berilgan;

Yevropa davlatlari tomonidan taqdim qilingan Transeron va Bag'dod temir yo'llarini qurish loyihalari, birinchi navbatda, Eron va Usmoniylar imperiyasida o'zining geosiyosiy ta'sirini o'rnatish maqsadini ko'zlagani, bu esa O'rta Sharqda keskin bahs-munozaralarga sabab bo'lib, oxir-oqibat Eronda temir yo'l qurilishi xorijiy kuchlarning sezilarli aralashuvi tufayli uzoq yillar davomida qonun bilan taqiqlanganligi aniqlangan;

Buyuk Britaniya, Rossiyaning Erondagi iqtisodiy va siyosiy hukmronligi, imtiyozlar va monopoliyalar uchun kurashda xorijiy banklar va yirik kompaniyalar o'rtasidagi iqtisodiy raqobatning keskin kuchayishi Eronning qaram davlatga aylantirib, mamlakatni siyosiy va geoiqtisodiy ta'sir zonalariga bo'lish uchun diplomatik kurashni barham topishiga olib kelganligi tasdiqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ushbu tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa davlatlarining Eronga tashqi siyosat ekspansiyasi tarixiga oid ko'plab arxiv hujjatlari va xorijiy fondlardan olingan materiallar birinchi marta ilmiy muomalaga kiritilgan. Yirik G'arb davlatlarining Erondi yarim mustamlaka davlatiga aylantira olgan iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan.

Yevropa davlatlarining Erondagi tashqi siyosiy raqobati tarixidagi geoiqtisodiy jihatlarni tahlil qilishga yangi ilmiy qarashlar va yondashuvlar tahlili jahon tarixi, xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash, ularni mustamlakachilik siyosatiga oid yangi ma'lumotlar va xulosalar bilan to'ldirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi arxiv manbalari, rasmiy hujjatlar, chet el adabiyotlarida ushbu mavzuga oid tarixiy jarayonlarning qiyosiy tahliliga asoslanib, xolislik va tarixiylik tamoyillaridan foydalangan holda, vakolatli organlar tomonidan olingan natijalar amalda tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa davlatlarining Erondagi tashqi siyosati ekspansiyasining geoiqtisodiy jihatlari,

tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik usullar, strukturaviy-kompozitsion tahlildan foydalangan holda obyektivlik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, ushbu muammo bo‘yicha nazariy hulosalarni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalardan jahon tarixi, xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va uslubiy materiallar yaratishda, mustamlakachilik davri, O‘rta Sharqning yangi davrdagi tarixi va bu mintaqadagi Yevropa davlatlarining raqobati tarix bo‘yicha maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Yeronda Yevropa davlatlarining tashqi siyosiy raqobati tarixi bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

XX asrning boshlarida Germaniyaning O‘rta Sharqda mustamlakalarni qo‘lga kiritishga intilishi “Katta o‘yin”ning asosiy siyosiy ishtirokchilari Buyuk Britaniya va Rossiyani yaqinlashishiga imkon yaratgani, bu esa, o‘z navbatida, 1907 yilgi konvensiyani imzolash bo‘yicha muzokaralarning boshlanishiga olib kelganligi hamda ingliz-rus shartnomasini ishlab chiqishda Turkiston general-gubernatorligi ma‘muriyati konvensiya loyihasining Afg‘onistonga tegishli qismi bo‘yicha ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari muzeyi ekspozitsiyalarini, xususan, “XIX asrda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Eronda temir yo‘l qurilishi tarixi”, “Xorijiy imtiyozlar va Sharqdagi monopoliyalar”, “Turkiston general-gubernatorligi ma‘muriyatining Eron, Afg‘oniston va Tibetda ta‘sir doiralarini chegaralash to‘g‘risidagi 1907-yildagi konvensiyaning imzolanishi doirasidagi faoliyati” boyitishga xizmat qilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 9 noyabr 2022 yildagi 10/2113-son ma‘lumotnomasi). Natijada muzeyga tashrif buyuruvchilarga XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Yevropa mamlakatlarining mustamlakachilik siyosati va Yerondagi Yevropa mamlakatlari raqobatining asosiy geoiqtisodiy jihatlari to‘g‘risida qarashlarni shakllantirishga imkon beradi;

Buyuk Britaniya va Rossiyaning siyosiy doiralari o‘z maqsadlariga erishish uchun Eron hukumatini siyosiy tuzoqqa ilintirib, qirol saroyini naqd subsidiyalar, ssudalar bilan ta‘minlab, yirik amaldorlarga pora berib, Qojarlarga bosim o‘tkazgani, “oltin (moliyaviy) igna” siyosatining qo‘llanishi esa Eronning janubiy, shimoliy va betaraf zonalarida Rossiya va Angliya monopoliyasining o‘rnatilishiga olib kelganligiga oid materiallar “Oltin meros” xalqaro xayriya jamoat fondining bir qator dasturlarini amalga oshirishda foydalanilgan (“Oltin meros” xalqaro xayriya jamoat fondining 16 yanvar 2023 yildagi 01-5-16/01-23-son ma‘lumotnomasi). Natijalarning qo‘llanilishi qiyin sharoitlarda Sharq xalqlarining milliy ongini oshirish mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiladi;

xorijiy banklar Eronning moliyaviy qiyinchiliklaridan foydalanib, Fors ko‘rfazining bojxona daromadlarini yuqori foizli katta kreditlar evaziga o‘tkazishni talab qilishi oqibatida Eronning iqtisodiy asoratga solinishiga olib kelganligiga oid ma‘lumotlar va ilmiy xulosalar O‘zbekiston xotin-qizlar olimlari uyushmasi “Olima” tomonidan tashkil etilgan davra suhbatlari va ilmiy seminarlar tashkil

etishda qo'llanilgan. (O'zbekiston xotin-qizlar "Olima" uyusrtmasining 1-A 158/230.2023.1.04-son ma'lumotnomasi). Natijada mustamlakachi davlatlarning siyosati natijasida bir qator davlatlar, jumladan Eronga salbiy ta'siri ochib berilgan;

Dissertatsiyada aks yettirilgan ilmiy xulosalar xorijiy davlatlar o'z maqsadlariga yerishish uchun xorijiy banklardan foydalanganligini isbotlaydi, bu yesa fors ko'rfazining bojxona daromadlarini yuqori foiz stavkalari, yirik kreditlar yevaziga o'tkazishni talab qildi, bu yesa mamlakatni iqtisodiy qaramlikka olib keldi. Transeron va Bag'dod temir yo'llarining turli loyihalari ham ishlab chiqildi, bu yaqin Sharqda salbiy reaksiyaga sabab bo'ldi, bu yesa chet yel kuchlarining potensial aralashuvi tufayli Yeronda temir yo'l qurilishi ko'p yillar davomida qonun bilan taqiqlanganiga olib keldi. Buyuk Britaniya va Rossiyaning Yeronda iqtisodiy va siyosiy hukmronligi uchun kurashda xorijiy banklar va yirik kompaniyalar o'rtasidagi iqtisodiy raqobatning kuchayishi, shuningdek imtiyozlar va monopoliyalar Yeroning qaram davlatga aylanishi va mamlakatning siyosiy va geoiqtisodiy bo'linishiga asos bo'lib xizmat qilganligidan O'zbekiston "Olima" ayol olimlar uyushmasi tomonidan tashkil yetilgan davra suhbatlari va ilmiy seminarlar tashkil yetishda foydalanildi. (O'zbekiston xotin-qizlar "Olima" uyushmasining 1-A 158/230.2023.1.04-son ma'lumotnomasi);

Yevropa davlatlari tomonidan taqdim qilingan Transeron va Bag'dod temir yo'llarini qurish loyihalari, birinchi navbatda, Eron va Usmoniylar imperiyasida o'zining geosiyosiy ta'sirini o'rnatish maqsadini ko'zlagani, bu esa O'rta Sharqda keskin bahs-munozaralarga sabab bo'lib, oxir-oqibat Eronda temir yo'l qurilishi xorijiy davlatlarning sezilarli aralashuvi tufayli uzoq yillar davomida qonun bilan taqiqlanganligiga oid yangi ma'lumotlar keng o'quvchilar ommasi hamda ilmiy jamoatchilik e'tiboriga yetkazildi (2023-yil 4-apreldagi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining № 04/11-1778 - son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur masalalar o'quv jarayonida aniq va yetarli darajada asoslanishiga olib keldi va yangi manbalar bilan boyitildi;

Buyuk Britaniya, Rossiyaning Erondagi iqtisodiy va siyosiy hukmronligi, imtiyozlar va monopoliyalar uchun kurashda xorijiy banklar va yirik kompaniyalar o'rtasidagi iqtisodiy raqobatning keskin kuchayishi Eronning qaram davlatga aylantirib, mamlakatni siyosiy va geoiqtisodiy ta'sir zonalariga bo'lish uchun diplomatik kurashni barham topishiga olib kelganligi bo'yicha ilmiy natijalar ommaviy axborot vositalari, jumladan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Haqiqat chorrahasida" ko'rsatuvi uchun bir nechta senariylar tayyorlash jarayonida foydalanildi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi davlat unitar korxonasi, "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023 10 fevral 02-30-218-son ma'lumotnomasi). Natijalar O'rta Sharq va Markaziy Osiyodagi Yevropa qarama-qarshiliklari tarixi haqidagi tushunchani kengaytirishga va XIX-XX-asrlarning oxirlarida "Katta o'yin"ning turli geoiqtisodiy va geosiyosiy jihatlarini yoritishda yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda, shu jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiya va seminarlarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy maqola va 1 ta monografiya chop etilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Tadqiqot kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 241 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy tadqiqot usullari ko'rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berib o'tilgan.

“XIX asr oxirida Rossiya va Buyuk Britaniyaning Eron iqtisodiyotiga kirib borishi. Savdo va moliyaviy qarama-qarshilik” deb nomlangan birinchi bobda “davlatlararo raqobat” tushunchasidagi nazariy va uslubiy asoslarning turli paradigmalari tahlil qilingan, 80-90-yillarda Eronda temir va avtomobil yo'llarini qurish loyihalari atrofidagi diplomatik kurashlar yoritilgan, Buyuk Britaniya va Rossiya hukumatlari foydali konsessiyalarga ega bo'lish uchun qo'llagan mexanizmlar, shuningdek, XIX asr oxirida Eron hisob-ssuda banki (EHSB) faoliyati ochib berilgan.

Darhaqiqat, XIX asr oxiri – XX asr boshlari ko'plab xalqlar va davlatlar taqdirini o'zgartirgan davr hisoblanadi. Bu davrda yetakchi davlatlar dunyoni bo'lib, hududiy egallab, Sharq mamlakatlarini qaram davlatlar yoki mustamlakalarga aylantira boshladilar. O'sha davrdagi eng yirik mustamlaka imperiyalari Rossiya va Buyuk Britaniya bo'lib, ular umuman O'rta Sharqqa, xususan, Eronga ko'z tikkan edi. Eron XIX asr oxirida davlatlararo munosabatlar tizimida o'zaro raqobat obyektiga aylanib, alohida o'rin egalladi.

Rossiya hukumati bu borada o'z yo'nalishini aniqlab olish uchun 1888 yil dekabr oyida Sankt-Peterburgda Rossiya-Eron munosabatlari muammosi bo'yicha yig'ilish chaqirdi, unda Eronga nisbatan tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqildi. Asosiy vazifa har qanday vaziyatda Angliyaning O'rta Sharq yo'nalishiga aralashish ehtimolini to'xtatish, kelajakda Rossiya va Eronning moddiy manfaatlarining “umumiyligi”ni ishonchli kafolatiga aylanishi mumkin bo'lgan asoslarni izlash edi. Eng ishonchli “iqtisodiy hamkorlik” Eronda temir yo'l va avtomobil yo'llari qurilishi bo'lgan. Shoh Rossiyaning samimiyligiga shubha uyg'otishdan qo'rqib, u uchinchi davlat tomonidan yo'llar qurilishiga to'sqinlik qilishi va Rossiya manfaatlariga mos keladigan loyihalarni qo'llab-quvvatlashi kerak edi. Ko'rib chiqish uchun taklif qilingan ko'plab loyihalardan ikkitasi asosiy hisoblanib, biri Karundan Isfahon yoki Tehronga temir yo'l qurish Baron Reyterga

taklif qilingan bo'lsa, ikkinchisi Belgiya jamiyati tomonidan tayyorlangan, Qazvin o'rtasida avtomobil yo'li qurish va Qum kelajakda Kaspiy dengizi va Fors ko'rfaziga olib kelinishi rejalashtirilgan. Ammo loyihalar amalga oshmay qoldi. Eronda temir yo'l qurilishi masalasi 1890 yil 4 fevralda bo'lib o'tgan maxsus konferensiya yig'ilishida qayta ko'tarilgan va qayta muhokama mavzusiga aylangan. Uzoq munozaralardan so'ng temir yo'l qurilishi bo'yicha yana salbiy qarorlar qabul qilingan. 1899 yilda Eron shohi Rossiya hukumatiga qurilishning taqiqlangan muddatini 10 yilga, keyinchalik 1910 yilgacha uzaytirish majburiyatini olgan. Buyuk Britaniya temir yo'l qurilishini taqiqlashga qarshi chiqmadi, chunki bunda uning o'z manfaatlari bor edi. Faqatgina agar Rossiya tomonidan temir yo'l qurilsa, Hindistonga borishlari mumkinligidan qo'rqish mumkin edi. Buyuk Britaniya esa bunga ruxsat berishni istamagan.

Rossiya davlat kapitali ta'sir ko'rsatish siyosatini amalga oshirish vositasiga aylangan va xususiy kapitalni rivojlantirish va uni chet elga eksport qilish uchun to'siq bo'lgan. Ishbilarmon doiralarning Eronda temir yo'l qurilishi uchun imtiyozlar olishga urinishlarini rad etib, Rossiya Tashqi ishlar vazirligi savdogar L.S. Polyakov va Eron hisob-ssuda bankiga Eronda yo'llarni qurish va ulardan foydalanish bo'yicha o'z kompaniyasini yaratishda faol yordam bergan. Bularning barchasi reklamasiz va xorijiy firmalar niqobi ostida amalga oshirildi. Biroq, L.Polyakov korxonalari (Shoh Abdulazim va Tehron ot-temir yo'llarining qurilishi) unchalik muvaffaqiyatga erisha olmadi, ammo kelajakda Rossiya hukumati ushbu korxonalarda Eron temir yo'llarida zaxira yaratishga va ularni amalga oshirishda amaliy tajriba orttirishga harakat qildi.

Rossiya Eronda savdo va tijorat nuqtai-nazaridan boshqa davlatlarga nisbatan ustunlikka ega bo'lgan. Kaspiy dengizida 10 ta yuk tashish kompaniyasi faoliyat yuritgan, ularning eng yiriklari «Kavkaz va Merkurii» kompaniyasi edi. Kaspiy dengizida Rossiya bayrog'i ostida jami 53 ta yuk, 7 ta yuk-yo'lovchi va 10 ta yo'lovchi kemasi umumiy yuk ko'tarish quvvati 30 ming tonnani tashkil qilgan. Batum-Julfa temir yo'li Kavkaz orqali o'tgan. Transkaspiy temir yo'li tufayli Rossiya tovarlari eronlik iste'molchilarga eng qulay tarzda – Volga va Kaspiy dengizi orqali yetib borgan. Ingliz tovarlari Eronga Hindistondan Eron ko'rfazi orqali, shuningdek, Rossiya temir yo'llari orqali Trebizondan Poti-Bokuga, keyin Kaspiy dengizi yoki Julfa orqali kirib kelgan. Yo'l uzoqroq edi. Britaniya savdosi faol rivojlanib, natijada inglizlar Eronga eksport qilganidan 4 barobar ko'p import qilgan¹¹. Savdo balansida ijobiy saldogga ega bo'ldi.

Rossiya savdosining holati va uning Erondagi Britaniya savdosi bilan raqobati Rossiya Tashqi ishlar vazirligini jiddiy tashvishga soldi. Diplomatlar savdo munosabatlarining ahamiyati va ularning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga ta'sirini, shuningdek, tomonlardan birining har qanday muvaffaqiyati kuchlar muvozanatining keskin o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ushbu "Osiyo uchburchagi" nafaqat Eronda, balki butun O'rta Sharq va Markaziy Osiyoda yaxshi anglangan edi.

Savdo kengayishning yangi tuzilmalari yaratildi va keyinchalik diplomatik

¹¹ Иванов М.С. Очерк истории Ирана. – Москва: ИПЛ, 1952. - С.190.

yoki harbiy makonga aylanishi mumkin bo'lgan iqtisodiy makonni zabt etishga imkon berdi¹². Iqtisodiy ta'sir o'rnatish orqali yirik davlatlar siyosiy ta'sir o'rnatdilar.

1892 yilda L.S. Polyakov Eron sug'urta va transport jamiyatini ochdi. U butun Eron bo'ylab tovarlarni tashish va sug'urta qilish bo'yicha monopoliyani qo'lga kiritdi. Jamiyat mamlakatning faqat shimoliy qismida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, uning Anzaliy, Rasht, Qazvin, Meshedisser, Barfush, Bandar Gez, Mian, Tabriz va Isfahonda vakolatxonalari bo'lgan. 1890 yilda Yakov Polyakov qimmatli qog'ozlar, veksellar va tovarlar bilan ta'minlangan kredit operatsiyalari bilan shug'ullanish, shuningdek, kim oshdi savdolarini tashkil etish huquqi bilan Rossiya bankini ochish uchun imtiyoz oldi. Imtiyoz muddati 75 yilga mo'ljallangan. Bankning nizom kapitali 5 million frank miqdorida belgilangan. Konsessiya shartlariga ko'ra, barcha bank operatsiyalaridan tushgan sof foydaning 10 foizi shoh g'aznasiga, 25 foizi muassislarga, 60 foizi aksiyadorlarga tushishi kerak edi¹³. Ammo bankning ishi samarasiz bo'ldi. 1891 yilda tasdiqlangan "Eron qarz jamiyati" taxminan uch yil davomida mavjud bo'lib, 1894 yil 16 aprelda Rossiya Davlat banki tomonidan sotib olingan¹⁴. Bank vazifalariga veksellarni hisobga olish, Rossiya qimmatli qog'ozlarini sotib olish va sotish, chet el valyutasini sotib olish, foizlar bo'yicha kreditlar berish, pul o'tkazmalarini to'lash, saqlash uchun depozitlarni qabul qilish va komissiya operatsiyalari kirdi.

1895 yildan boshlab, bank xususiy korxonadan davlat korxonasiga aylantirilgandan so'ng, Eronga rus kapitalining shiddatli oqimi boshlandi, u kreditlar, yo'llar, savdo korxonalari, dengiz yuklari, neft korxonalari qurilishi uchun imtiyozlarga investitsiya (kerosinni qayta ishlash va olish), tanga zarb qilish, mamlakat amaldorlariga pora berishlar bo'ldi. Eronda EHSBdan oldin ochilgan Angliya imperiyasining Shohinshoh banki ustav kapitali, moliyaviy aylanma, bank operatsiyalari va kreditlash bo'yicha Rossiya bankini ortda qoldirdi. Eronda moliya sohasida Rossiya va Angliya o'rtasida uzoq davom etgan banklararo raqobat boshlandi.

